



## Tajribadagi Sigirlarning Yelin Xususiyatlari Va Sut Mahsuldorligining Yelin Shakllariga Bog‘Liqliqi

**Xoljigitov Asqar Marifjonovich**- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali Zootexnologiya va ipakchilik kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

**Eshdavatov Orif Zokirovich** - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali Zootexnologiya va ipakchilik kafedrasida dotsenti

**Annotation.** When assessing the degree of adaptation of cow Yelin to modern milking equipment in livestock herds, it will be of particular importance to assess the morphological and functional characteristics of the Yelin, depending on the dairy productivity of cows.

**Аннотация.** При оценке степени адаптации коровы Елин к современному доильному оборудованию в стадах домашнего скота особое значение будет иметь оценка морфологических и функциональных характеристик елин в зависимости от молочной продуктивности коров.

**Kalit so‘zlar:** sigir, yelin, sut, chorva mollari, zot, yelin aylanasi, yelin uzunligi, yelin eni va ratsion.

**Kirish.** Sigirlarni sut mahsuldorligini oshirishda to‘la qiymatli oziqlantirish sut mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday oziqlantirish ta‘minlanganda sog‘in sigirlarning organizmi uchun talab qilinadigan to‘yimli moddalar, mineral moddalar, vitaminlar va boshqa muhim elementlar bilan ta‘minlanadi, bu esa o‘z navbatida ularning sog‘lig‘ini saqlab turish, organizmini mustahkamligini, turli omillarga chidamliligini oshirishda, pushtdorligini yaxshilash va sut mahsuldorligini ko‘paytirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday fikrlarni ko‘plab mualliflarning tadqiqotlari natijalari asosida qilgan hulosalaridan ham ko‘rish mumkin.

Hozirgi kunda yer yuzidagi insonlarni chorvachilik mahsulotlariga talablarini qondirishda inson evolyusiyasida yaxshi hazmlanuvchi chorvachilikning asosiy mahsulotlari go‘sht va sut yetishtirishni ko‘paytirish o‘ta muhim hisoblanadi. Bu omilni bajarish avvalombor chorvachilik mahsulotlarini mahsuldorligini va mahsulotlari sifatini chorva mollarni oziqlantirishini hamda zotini yaxshilash hisobiga amalga oshiriladi.

Sutdor podalarda sigirlar yelinining zamonaviy sog‘ish uskunalariga moslashganlik darajasini baholashda ular yelinining morfologik va funksional xususiyatlarini baholash alohida ahamiyat kasb etadi.

Biz, tajriba guruhidagi sigirlarda yelin o‘lchamlari bo‘yicha olingan ma‘lumotlarni 1-jadvalda keltirildi.



**1-jadval**  
**Tajriba guruhidagi sigirlarning yelin o'Ichamlari, sm**

Ko'rsatkichlar	Guruhlar					
	Nazorat		I tajriba		II tajriba	
	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	S <sub>v</sub> , %	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	S <sub>v</sub> , %	$\bar{X} \pm S\bar{x}$	S <sub>v</sub> , %
Yelin aylanasi	132,2±1,41	1,06	138,7±1,72**	1,24	135,0±1,27*	0,94
Yelin uzunligi	44,0±1,0	2,40	48,4±0,95**	1,96	45,8±0,85*	1,86
Yelin eni	40,0±0,79	2,01	43,7±0,74***	1,70	41,3±0,76	1,86
Yelinning oldingi qismining chuqurligi	30,1±0,92	2,58	34,3±0,93**	2,66	30,5±0,87	3,01
Yelinning orqa qismining chuqurligi	33,2±0,88	2,67	38,2±0,99***	2,45	34,0±0,90*	2,57
Oldingi so'rg'ichlar uzunligi	8,06±0,47	5,93	8,43±0,77*	9,23	8,24±0,61*	7,50
Orqa so'rg'ichlar uzunligi	7,45±0,48	6,55	8,9±0,65*	8,13	7,92±0,56	7,17
So'rg'ichlar diametri, mm	2,1±0,39	1,79	2,4±0,30*	1,31	2,5±0,34	1,54
Yelin indeksi,%	42,5	-	43,8	-	43,0	-
Yelinning shartli hajmi, sm <sup>3</sup>	3970,0	-	4774,6	-	4134,0	-
Sut berish tezligi, kg daqiqa	1,27±0,02	2,33	1,36±0,05	4,40	1,30±0,04	3,80

Eslatma: \*R<0,05 \*\*R<0,01, \*\*\*R<0,001

1-jadvaldan ko'rinishicha, I va II tajriba guruhidagi sigirlarning yelin aylanasi nazorat guruhlaridan tegishli ravishda 6,5 sm yoki 4,9% ga (R<0,01) va 2,8 sm yoki 2,1% ga (R<0,05), yelin uzunligi 4,4 sm yoki 10,0% ga (R<0,01) va 1,8 sm 4,1% ga (R<0,05), yelin eni 3,7 sm yoki 9,2% ga (R<0,001), yelinning oldingi qismi chuqurligi 4,2 sm yoki 13,9% ga (R<0,01) va 0,4 sm yoki 1,3% ga, yelinning orqa qismi chuqurligi 5,0 sm yoki 15,1% ga (R<0,001) va 0,8 sm yoki 2,4% ga (R<0,05), oldingi so'rg'ichlar uzunligi 0,37 sm yoki 4,6% ga (R<0,05) va 0,18 sm yoki 2,2% ga (R<0,05), orqa so'rg'ichlar uzunligi 1,45 sm yoki 19,5% ga (R<0,05) va 0,47 sm yoki 6,3% ga (R<0,05), yelin indeksi 1,3 va 0,5% ga, yelinning shartli hajmi 804,6 yoki 164,0 sm<sup>3</sup> ga va sut berish tezligi 7,1 va 2,4% ga yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Shuningdek, sigirlarning yelinining so'rg'ichlar diametri me'yor talablar darajasida va guruhlar o'rtasida sezilarli farq kuzatilmadi, bu esa ularning mashinada sog'ish talablariga javob berganligidan dalolat beradi.


Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlarimizda sigirlar yelinini morfofunktsional xususiyatlari va sut mahsuldorligi ularning yelin o'Ichamlariga uzviy ravishda bog'liq ekanligini ko'rsatdi

Tajribadagi sigirlar sutining tarkibidagi quruq modda, yog'sizlantirilgan quruq sut qoldig'i, sut qandi me'yor talablari darajasida bo'ldi va ularning sutining to'yimligi yuqori



qiymatga ega bo'lganligidan dalolat berdi. Bizning bu ma'lumotlarimiz O'zbekiston sharoitida golshtin zotli qoramollar podasida sigirlardan olingan Sigirlarning sutining to'yimlilik qiymatini belgilashda ularni to'la qiymatli oziqlantirish muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlarimizda sigirlar yelinini morfofunktsional xususiyatlari va sut mahsuldorligi ularning yelin o'lchamlariga uzviy ravishda bog'liq ekanligini ko'rsatdi. 10-rasm



**Xulosa:** Tajriba guruhlaridagi sigirlar yelinining maqbul texnologik hususiyatlariga ega bo'ldi. II guruh sigirlarining yelinining aylanasi, uzunligi, eni, oldingi va orqa qismlarining chuqurligi, so'rg'ichlari o'lchamlari, yelin indeksi I va III guruh sigirlarinikidan yuqori ko'rsatkichlar bilan tavsiflandi, yelinining hajmi tegishli tarzda 640,5 va 805,6 sm<sup>3</sup>, sut berish tezligi 3,81 va 6,24 % yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Barcha guruhlardagi sigirlarning yelin hususiyatlari zamonaviy sog'ish uskunalarida sog'ishga yaroqliligini ko'rsatdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-308-sonli Qarori, Tashkent, 2006, 23 mart
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-842-sonli qarori. Toshkent, 2008, 21 aprel.



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2016-2020 yillarda qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida».gi PQ-2460-sonli Qarori. Tashkent, 2015, 29-dekabr’.
4. Akmalxonov Sh.A., Ashirov M.E. Qoramolchilikda naslchilik ishining vazifalari. J. «Zooveterinariya», № 10,2009, 35-37 b.
5. Anzorov V., Goncharova Ye., Chomaev A. Svyaz faktorov vneshey sredы s vosproizvoditelnoy funksey korov. J. «Molochnoe i myasnoe skotovodstvo», № 8, 2004, s. 27.
6. Amerxanov X. Plemennaya baza molochnogo i myasnogo skotovodstva Rossiyskoy Federatsii i perspektivy yeyo razvitiya. J. «Molochnoe i myasnoe skotovodstvo», № 8, 2010, s. 2-5.